

“TURKISTON TO‘PLAMI” SAHIFALARIDA ANANAVIY HUNARMANDCHILIK VA SAVDO-SOTIQ

Boboyev Mirodillo Qosimjon o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti Magistratura bo‘limi

I bosqich magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Turkiston xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida hunarmandchilik va savdoga asoslangan bozor munosabatlarining rivojlanishi, xonliklar o‘rtasida chet mamlakatlar (birinchi navbatda Rossiya) bilan tovar almashinuvini, Turkistonda yangi iqtisodiy sharoitda sanoat korxonalarining ishlab chiqarish jarayonida o‘zgarishlar yuz berganligi haqida so‘z yuritiladi.*

Аннотация: *В данной статье говорится о развитии рыночных отношений на основе ремесла и торговли в общественно-экономической жизни туркестанцев, обмене товаров между ханствами с зарубежными странами (прежде всего Россией), изменениях в производственном процессе промышленных предприятий в новой экономической условия в Туркестане.*

Annotation: *This article talks about the development of market relations based on crafts and trade in the socio-economic life of Turkestan people, the exchange of goods between the khanates with foreign countries (primarily Russia), changes in the production process of industrial enterprises in the new economic conditions in Turkestan.*

Kalit so‘zlar: *Sanoat mahsulotlari, hunarmandchilik, savdo-sotiq, temirchilik, kulolchilik, Turkiston, Farg‘ona, Marg‘ilon, Qo‘qon, Rossiya, Turkiya, Sibir, Kavkaz, Eron, Afgoniston.*

Ключевые слова: *Промышленные изделия, ремесла, торговля, кузнечное, гончарное дело, Туркестан, Фергана, Маргилан, Кокан, Россия, Турция, Сибирь, Кавказ, Иран, Афганистан.*

Key words: *Industrial products, crafts, trade, blacksmithing, pottery, Turkestan, Fergana, Margilan, Kokan, Russia, Turkey, Siberia, Caucasus, Iran, Afghanistan.*

Kirish. XIX asr o‘rtalarida Turkiston xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida nisbatan jonlanish yuz berdi. Bu avvalo, urbanizatsiya jarayoni kuchayishida, qishloq xojaligi, hunarmandchilik va savdoga asoslangan bozor munosabatlarining rivojlanishida sezila bordi. Biroq mahalliy bozorlarning doirasi cheklangan bo‘lib, ular milliy bozorga aylanish darajasiga kotarilmagan. Bunga hududiy bo‘linishlar, feodal tarqoqlik, xonliklar o‘rtasidagi doimiy urushlar, tovar-pul munosabatlari va mehnat taqsimotidagi cheklanganlik sabab bo‘lgan. Shunga qaramasdan, obyektiv ijtimoiy-iqtisodiy zaruriyat tufayli, viloyatlarda boshlangan ixtisoslashish jarayoni O‘rta Osiyo xonliklari o‘rtasida va chet mamlakatlar (birinchi navbatda Rossiya) bilan Tovar almashinuvini kuchaytirdi. P.Ivanovning takidlashicha xalqaro, jumladan, Rossiya bozorlarida O‘rta Osiyo xomashyosi va ba‘zi mahsulotlariga talab kuchaya boshladi. Bundan ragbatlangan mahalliy korxonalar

imkoniyatlari boricha, o'z jamoalarida ishlab chiqarish munosabatlarini qayta qurishga harakat qildilar. [1:125]

Asosiy qism. Turkistonning boshqa viloyatlari kabi Farg'ona vodiysi tumanlarida ham hunarmandchilik o'zigaxos usulda rivojlandi. Hunarmandchilik mahsulotlari vodiyning shaharlari va yirik qishloqlarida Tovar xarakteriga ega bo'lib, ulardan keladigan daromad bozorning uzoq-yaqinligiga va talabga bog'liq edi. Vodiya paxtachilik va pillachilikning keng rivojlanishi tufayli to'qimachilik sanoatining yuksalishi bozor munosabatlari uchun qulay sharoitni vujudga keltirdi. Marg'ilon va Xojand shaharlari yirik shoyi to'qish markazlariga aylandi. Marg'ilonda 120 ta, Xojandda esa 97 ta shoyi to'qish ustaxonalari ishga tushirildi. Qoqonda esa bunday ustaxonalarda boryo'g'i 49 ta bo'lib, bu yerda tayyorlangan matolarning sifati ancha past bo'lgan. Andijon va Oshda hunarmandchilik nisbatan kam rivojlangan. Marg'ilonda tayyorlangan shoyigazlamalar, ko'rpachalar, ko'ylaklar Qoshgar, Buxoro, Turkiyaga, Xojandda tayyorlangan matolar Sibir, Rossiyaning Yevropa qismiga, Kavkaz, Eron, Afgonistonga olib ketilgan. Namanganda to'qilgan tik, bo'zgazlamalariga qirgizlar o'rtasida talab katta bo'lgan. Vodiya yashovchi ko'chmanchi aholi tayyorlagan mahsulotlar esa hali Tovar xususiyatiga ega bo'lmasdan, balki ko'proq o'zaro almashish vositasi vazifasini o'tagan. [2:95]

Qo'shni davlatlar va xalqlar bilan Tovar almashuvining kuchayishi Farg'ona vodiysida bozor munosabatlarining rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatdi. Farg'ona vodiysida to'quvchilik bilan birqatorda kulolchilik ham yaxshi rivojlangan bo'lib, Xojand va Rishton shaharlari ustalari bu sohada katta shuhrat qozonishgan. Savdogarlar Namanganda tayyorlangan xumlarni Sirdaryo bo'ylab sollarda suzib sotishgan. Vodiy shaharlarida etik, kovush-mahsi va boshqa oyoq kiyimlari tayyorlash ham yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu borada Qo'qon va uning atrofidagi tumanlar yetakchi o'rin tutishgan. Vodiya to'qimachilik va kosibchilik bilan bir qatorda temirchilikka ham katta etibor berilgan. Deyarli barcha shaharlar va yirik qishloqlarda chuyan qo'yish va temirchilik ustaxonalari bo'lgan. Metallga ishlov berishda dashtliklarning mehnati ayniqsa, yuqori baxolangan. Chust shahri o'zining pichoqlari va do'ppilari bilan mashhur bo'lgan. Shunday qilib, Farg'ona vodiysi shaharlari aholisi o'z tirikchiliklarini o'tkazish uchun hunarmandchilikning turli sohalari bilan shug'ullanishgan.

Hunarmandchilikning rivojlanishiga chorvachilik bilan shug'ullangan ko'chmanchi aholi tovarlar sotib olish va xomashyo yetkazib berish orqali samarali ta'sir ko'rsatishgan. Vodiy aholisi kambag'al qatlamlarning bir qismi konchilik bilan shug'ullangan. Ular asosan, oltin, kumush, qo'rgoshin, qalay, toshko'mir qazib olishgan, tuzni bug'lantirib, tozalashib sotishgan. Ko'pchilik kambag'allar otinchilik bilan ham mashg'ul bo'lishgan. Faqat Marg'ilon bozorining o'zidagina har-yili qariyb 30000 arava o'tin sotilgan. O'tinchilar o'z mehnatlari bilan shaharlarda hunarmandchilikning rivojlanishiga ma'lum darajada hissa qo'shishgan. Farg'ona vodiysida aholining nisbatan zichligi, ko'chmanchi chorvador aholi bilan muntazam aloqalar hunarmandchilik va savdo bozor munosabatlarining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Xonliklar davrida hunarmandchilik va savdoning o'ziga xos qonun-qoidalar bo'lib, ustaxonalarda sex nizomiga (risolalarga) qat'iy amal qilingan. Risolalarda kishilarning sof va diyonatga chaqirilib, ustalarning

xalfalar va shogirdlarini ekspluatatsiya qilishlarini ma'lum darajada cheklab turilgan. «Barcha risolalar, - deb yozadi Gavrilov, - yagona andoza asosid atuzilgan. Ularda dastlab Olloh taolaga, uning elchisi payg'ambarga, barcha pirlarga hamdu-sanolar o'qilgandan keyin oxirida hunarmandlarga murojaat qilinib, kimki risola qoidalarini vijdonan bajarsa mukofotlanishi, ularni bajarmasa yoki buzsa jazolanishi ko'rsatilgan». Ruslar kelgandan keyin bu risolalar o'z ahamiyatini yo'qota boshladi. Xususiy boylikka berilish, firibgarlik, moddiy manfaatdorlikni har narsadan ustun qo'yish insof, diyonat kabi tushunchalarni chetga surib qo'ydi. Yangi iqtisodiy sharoitda korxonalarining ishlab chiqarish jarayonida ham o'zgarishlar yuz berdi. Endi yo'llanib ishlovchi kosiblar boy ustalardan olgan xom-ashyolarini o'z uylaridagi asbob-uskunalar bilan tovarga aylantirib, uning ustaga qaytarishar, mehnatlari evaziga esa ishbay haq olishar edi. Yollanib ishlovchi toquvchilar erta tongdan qorongu kechgacha ishlashsa-da to'qigan gazlamalari bir kunda 4-8 arshindan oshmagan. Kunlik ish haqlari esa bir necha tangani tashkil etgan, xolos. Kapitalistik bozor munosabatlarining o'ziga xos bunday kasanachilik shakli ish beruvchilar uchun mahalliy mehnat kashlarni ekspluatatsiya qilishning qulay usuliga aylangan. [3:224]

Mahalliy sanoatning boshqa tarmoqdagi singari kulolchilik ham monopolistic kapitalizm davrigacha rivojlanib bordi. Agar, 1885-yili Xojand shahrida 15 takulolchilik korxonasida qariyb 1500 rubllik mahsulot ishlab chiqargan bo'lsa, 1891-yili, ya'ni oradan besh yil o'tgach kulolchilik korxonalarining soni 42 taga yetgan va ular 18700 so'mlik mahsulot ishlab chiqarishgan. O'lkada hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarish (jumladan, kulolchilik mahsulotlari)ning rivojlanishiga viloyatlar o'rtasida ixtisoslashish jarayoni hamda temir yo'l qurilishi natijasida ular o'rtasidagi o'zaro aloqalarning kuchayishi asosiy sabab bo'ldi. Biroq o'lkada moliya kapitali hukmronligi boshlangach, kulolchilik buyumlariga talab kamaya boshladi.

Rossiyadan keltirilayotgan sanoat mahsulotlari mahalliy hunarmandlar mahsulotlarini kasodga uchratdi. Kopchilik hunarmandlar o'z kasblarini tashlab, boshqa sohalarga o'tib ketdilar. Natijada birgina Xo'jand uyezdida kulolchilik korxonalarini 1896-yilgi 44 tadan, 1913-yili 22 taga tushib koldi. O'rta Osiyo aholisining arzon, ochiq rangli va guldor idishlarga ochligini bilib olishgan g'arblik fabrikachilar, deb yozadi bu haqda M.Dostoyevskiy, - bu yerga o'z mahsulotlarini eksport qilishni muntazam kuchaytirdilar. Natijada, mahalliy hunarmandlarning nisbatan qopol va rangsiz mahsulotlari inqirozga uchrash boshladi. Kulollarning ko'pchiligi 12-13 soatga cho'zilgan ish kuni va mashaqqatli mehnatlariga yarasha daromad ololmaganliklari natijasida turmush sharoitlari tobora ogirlashib keta boshlagach, boshqa sohalarga o'tishga majbur bo'ldilar.

O'lkada keng tarqalgan hunarmandchilik tarmoqlaridan biri temirchilik sanoati bo'lib, u uchta mustaqil guruhga bo'lingan:

1. mayda buyumlar (eshik zanjirlari, taqa, mix, suvlik, arava gildiragi uchun xalqa va boshqalar) yasash;
2. duradgorlar, quruvchilar, dehqonlar, hunarmandlar uchun asbob-uskunalar yasash;
3. uy-rozg'or buyumlari (pichoq, qirgich, qaychi, tesha, bigiz, arra va boshqalar) yasash.

Temirchilarning bir necha guruhlarga bo‘linishi, bu sohada mehnat taqsimoti rivojlanganligini ko‘rsatadi. Temirchilarning ixtisoslashganliklariga taqachilarning ustaxonasi misol bo‘ladi. Bu yerda taqadan boshqa hech narsa yasalmaydi. Ustaxona yonida uning yordamchilari otlarni ham taqalaydilar». Temirchilarning ustaxonalari ham bozorlarda, boshqa do‘konlar bilan yonma-yon joylashgan. O‘lkada temirchilik korxonalarining ko‘pchiligi bir uchoqli ustaxonalardan iborat bo‘lib, ularda-yiliga o‘rtacha 100-120 pud temir qayta ishlangan. [4:110]

Xulosa. O‘lkaning ko‘pchilik tumanlarida nisbatan foydaliroq va talab katta bo‘lgan hunarmandchilik tarmog‘i, bu Konchilik sanoati edi. Bu soha bilan haqiqiy konchilardan tashqari dehqonlar va chorvadorlar ham shug‘ullanishgan. Konchilik sanoatida mahsulot ancha oddiy usulda tayyorlanishiga qaramasdan, bu sohada yo‘llanma mehnatdan foydalanish nisbatan ancha yuqori bo‘lgan. Oshlangan terilarga bozorda doimo talabning kattaligi tufayli korxonalar egalari ishchilarni vaqtinchalikka emas, balki doimiylikka yollashga harakat qilishgan. Masalan, 1908-yili Samarqand viloyatidagi 71 ta konchilik korxonasida 204 ishchi ishlagan. Fargona viloyatida 1909-yili 76 ta konchilik korxonasida 648 ishchi ishlagan, yani har bir korxonada ishchilarning soni o‘rtacha 8 kishidan kam bo‘lmagan. Rus burjuaziyasiga tegishli yirik konchilik zavodlari o‘lka bozorlarini yuqori sifatli mahsulotlar bilan to‘ldira boshlagach, mahalliy konchilik sanoati inqirozga uchraydi. Konchilik korxonalarida ishchilar ish jarayonida bir-birlariga bogliq bo‘lishib, korxonalar egasi nazorati ostida bir xil tovar ishlab chiqarishgan. Bunday korxonalar parda kapitalizmga xos ishlab chiqarish usullari joriy etilgan. Agar, Marg‘ilonda bir ustaxonaga qariyb 3 ta ishchi to‘g‘ri kelsa, bu Namanganda ular bor-yogi 1,1 tani tashkil etgan. 1908-yili Farg‘ona viloyati bo‘yicha hunarmandchilik korxonalarida 18175 tani Minkinnib, ularda 29460 kishi ishlagan.[5:145]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq etish va targ‘ib qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 2017 yil 24 may, PQ-2995-son // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 21 (781) –son. 2017 yil 29 may. – T., 2017. – B. 37.
2. А.Семёнов. Туркестанский сборник // - ТС. Т. 517; Бенедиктова Н. «Туркестанский сборник» как источник изучения Средней Азии // Литературный Ташкент. Алманах. 1945. № 1;
3. К.К.Пален. Материалы к характеристике народного хозяйства в Туркестане. Част 1. – Спб., 1911;
4. М.Р.Жабборов., Р.А.Арслонзода. Фарғона Россия империяси ҳукмронлиги даврида (“Туркестанский сборник материаллари асосида”). Т.: “Наврўз” нашриёти, 2019. – Б. 3-4.
5. Коневодства Туркестана. // Туркестанский сборник. 1909. Т.510.; И.В.Мушкетов. Туркестан. Т. 1. – Спб, 1886